

---

## HAMKORLIK

Umumta'lim maktablari faoliyatini takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, o'quvchilarning ilm-fan va kasb-hunarga qiziqishini oshirish, oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida Qo'shtepa tumani XTBga qarashli 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida Oliy ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi doirasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda maktab o'qituvchilari va o'quvchilari hamda Andijon Davlat Tibbiyot instituti Umumiy jarrohlik kafedrasida professori Y. Egamov qatnashdi.



---

Y. Egamov o'quvchilarga Andijon Davlat Tibbiyot institutining faoliyati haqida ma'lumot berdi. Tayyorlab kelgan taqdimoti bo'yicha tibbiy bilimlarini barchaga ulashib, o'quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.



2020-03-02 11:50:51